



“TASDIQLAYMAN”

**Urganch innovatsion universiteti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha
prorektori M.M.Masharipov**

**Urganch innovatsion universitetida “Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”
hamda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzularida
bo‘lib o‘tgan insho tanlovining respublika bosqichiga tayyorgarlik jarayonlari
to‘g‘risida**

BAYONNOMA

27.01.2025

Urganch shahri

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-sonli buyrug‘ini ijrosini ta‘minlash hamda ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish, talaba-yoshlarda yuksak ma‘naviyatni shakllantirish, jadidlarimizning badiiy asarlar roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, jadid bobolarimiz faoliyatini o‘rganish, shuningdek, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan tanishish maqsadida Urganch innovatsion universitetida 12-dekabr kuni talaba-yoshlar o‘rtasida **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar tanlovi yuqori saviyada tashkil etildi.

Tashkiliy ishchi guruh tomonidan tanlov g‘oliblari **13-dekabr** kuni aniqlandi hamda diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi. Insholar tanlovining mintaqaviy saralash bosqichlari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-son buyrug‘iga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi barcha OTMLar uchun Qoraqalpoq davlat universitetida **3-fevral soat 11.00da** o‘tkazilishi belgilangan. Shu sababli Urganch innovatsion universitetida insho tanlovlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish, tayyorgarlik darajasini yuqori saviyada tashkil qilish maqsadida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor **M.Masharipov** tomonidan **“O‘zbek va xorijiy filologiya”** kafedrasida o‘qituvchisi **Matqurbonova Muhabbat Shokirovna** mas‘ul qilib tayinlandi. Joriy yilning 27-yanvar kuni ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni

tayyorlash bo'limi boshlig'i **A.Abdullayev** tomonidan ushbu tanlovlarga tayyorgarlik jarayonlari o'rganildi. Jumladan, M.Matqurbonova insho tanlovlariga tayyorgarlik jarayonlarini reja grafik asosida olib borayotganligi, darslar har hafta muntazam ravishda o'tkazilayotganligi, talabalarning ushbu dars jarayonlarida egallagan bilimlari tahlil qilindi. Ushbu darslarda o'zbek tili kunduzgi ta'lim shakli talabalari 22/01 guruhdan **Rustamova Iroda** va 24/01 guruhdan **Yangiboyeva Umida** muntazam ravishda qatnashib, insho tuzilishi, turlari, inshoni mazmunli yozish va berilgan mavzuni chuqur yoritish usullari, shuningdek, mavzuga to'liq yondashgan holda jadid bobolarimizning bosib o'tgan shonli hayot yo'li, ilmiy va ijodiy faoliyati, bizga qoldirgan ulkan merosi, ijodidagi mustaqillik va jamiyatni ma'rifatli qilish g'oyalari, bu mazmunni o'zida singdirgan qimmatli asarlari haqida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lganliklari ma'lum bo'ldi. "O'zbek va xorijiy filologiya" kafedrasida o'qituvchisi **M.Matqurbonova** talabalarning tanlovga puxta tayyorgarlik ko'rayotgani, ko'plab bilim va tajribalarga ega bo'layotganliklari, tanlovda o'z qobiliyat va egallagan bilimlarini yuzaga chiqargan holda yuqori natijalarni qo'lga kiritishini ta'kidlab o'tdilar.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash
bo'limi boshlig'i:**



A.Abdullayev



Tayyorgalik jarayonidan lavhalar

